

PROKUROR FAOLIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

*Oriental universiteti 2-kurs magistranti
Mamaziyayev Sodirjon*

ANNOTATSIYA

Davlatning jazo tizimi belgilangan har bir jinoyat uchun turli jarimalarni undirish hisoblangan. Prokuratura tizimi sud tizimining bir qismi bo'lib, unda sudylar turli vazifalarda va ular hokimyat tizimining turli darajadagi vazifalarini bajarishi va ular davlat hokimyatining asosiy tuzilmasi hisoblangan. "Sud ishlari qirol tomonidan tayinlangan prevo, dastlab balya va so'ng leytenantlar tomonidan olib borilgan. Bu davrga kelib XIII asrda tashkil topgan Parij parlamenti feodal zodagonlarning ishlari bo'yicha Oliy sud, barcha ishlar bo'yicha apellyatsion instansiya bo'lib qolgan. Bundan tashqari, parlament qirollik qonun hujjatlarini quyi sudlar va boshqa shahar parlamentlari qarorlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi. Sud tizimida ishlarni yuritish tartibini bir xillashtirish siyosati o'tkazilgan. Sud faoliyati qirol ma'muriyati nazoratida bo'ladi.

Kalit so'zlar: Prokratura, faqih, sud, qonun ustuvorligi, huquqiy prinsiplar, tergov.

KIRISH

Mamlakatimizga rus bosqini amalga oshganidan so'ng, davlat boshqaruv tizimi ham o'zgarib boradi. "1937-yilda 14-fevralda O'zbekiston Sovetlarining Favqulodda IV Qurultoyi O'zbekiston SSR yangi Konstitutsiyasini qabul qildi", "Konstitutsiyada sud va prokuratura idoralari tizimida, ularning faoliyat yo'nalishlari va vakolatlari, fuqarolarning huquqlari va burchlari, shuningdek davlat ahamiyatiga molik boshqa masalalar ham o'z aksini topgan"¹ Mazkur tizimning ilk boshlanishi va shakllanishi shu tariqa boshlanib, uning taraqqiy etishi davlat tizimining taraqqiy etishi bilan davom etgan. Xususan, tergov faoliyatiga alohida nazar tashlaydigan bo'lsak, mazkur faoliyat bilan faqat prokuratura organlari shug'ullanib kelgan. Hamda tergov ishlari faqat oliy ma'lumotli tergovchilar shug'ullanib, faqatgina ma'lum vaqt va zaruriyatga qarab bunga o'rta ma'lumotli tergovchilar jalb qilingan. Bunga yagona shart ularning jinoiy ishlarni tergov qilishda katta ma'lumot va tajriba ega ekanligi hisobga olingan.² "1963-yilga qadar jinoiy ishlarga doir dastlabki tergovni prokuratura idoralari olib borgan. 1963-yildan boshlab esa ichki ishlar idoralari huzurida tergov apparati tuzilgan." Bundan ko'rinib turibdiki, tergov ishlari yakka bir organdan ikkinchi organga ham tegishli

¹ H.T.Odilqoriyev.; N.P.Azizov.; X. Y.Madirimov. Davlat va huquq tarixi. Darslik. IIV Akademiyasi .Toshkent. 2012

² H.T.Odilqoriyev.; N.P.Azizov.; X. Y.Madirimov. Davlat va huquq tarixi. Darslik. IIV Akademiyasi .Toshkent. 2012

bo'lib, ular jinoyat turlari, ularning og'ir-yengilligi hamda ma'lum bir sohaga tegishli jinoyatlarga qarab endi mazkur organlar o'rtasida taqsimlanadigan bo'lgan. Tergov qilish ikki organga taqsimlangan bo'lsada, ularni ish prinsipi turlicha bo'lgan, hamda shuni narsani nazarda tutishimiz lozimki, militsiya organi prokuratura organiga buysungan. "Tergov bo'limlari o'sha vaqtda militsiya tekshirish bo'limlari tarkibida tashkil etilgan. Lekin ular tekshirish bo'limlaridan va prokuraturaning tergov apparatidan ham farq qilgan. Xususan, militsiya tergovchilariga protsessual mustaqillik, jinoiy ishlar yuzasidan prokuror ruxsati va tasdig'i talab qilinadigan hollardan tashqari barcha hollarda o'zi qaror qabul qilish huquqi berilgan. Militsiya tergovchisi prokuratura tergovchisidan farqli ravishda ichki ishlar idoralarida olib borilayotgan jinoiy ishlarni tergov qilishda hamkorlikni tezroq tashkil qilgan hamda xizmat imkoniyatlaridan to'laroq foydalana olgan."³ Bundan ko'rinib turibdiki, militsiya tergov bo'limi va prokuratura tergov apparati bir-biridan farq qilgan. Ma'lum ma'nodagi prokuraturaga buysunish tartibini hisobga olmasa, militsiya tergovchilari mustaqil ish yuritgan hamda militsiya idoralari prokuratura idoralaridan nisbatan keng qamrovli va aholiga va boshqa organlarga nisbatan ochiqligi sababli ular o'rtasida tergovga tegishli aloqalar osonlik bilan yo'lga qo'yilgan va xizmat imkoniyatlaridan foydalanish ham tezroq olib borilgan.

Prokuratura organlarida o'zgarishlar 1978-yilga kelib yangi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan amalga oshirila boshlandi. Mazkur organning vakolatlari saqlanib qolinib, unga ma'lum huquq va majburiyatlar birlashtirildi. Bu borada fuqarolarning huquq va erkinliklari ma'lum darajada kengaytirilganini aytib o'tishimiz lozim.⁴ Keltirib o'tilgan ma'lumotlar mazkur organ davlat hokimiyatida qanchalik katta ahamiyatga va o'ringa ega ekanligini korib o'tishimiz va anglashimiz mumkin. Mamlakatimiz mustaqil bo'lgandan so'ng bu organ tugatilmadi hamda o'z o'rnini va avvalgi maqomi - mamlakat hududida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi organ sifatida ish yuritdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mazkur tizim haqida alohida moddalar kiritilib⁵, 1992-yil alohida qonun ham qabul qilindi. Hamda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumi⁶da umumxalq ovozi orqali qabul qilindi.

Prokuratura organi shakllanishi o'rta asr Yevropasida tashkil topib, asosiy hokimiyat organi sifatida tashkil topib borgan hamda uning rivojlanib boshqa davlatlar huquq tizimiga kirib kelib, unda o'rin egallashi ham diqqatga sazovor. Qonunlarni bajarilishini nazorat qilish, jazo tayinlash, hibsga olish va shu kabi hokimiyat ishlari

³H.T.Odilqoriyev.; N.P.Azizov.; X. Y.Madirimov. Davlat va huquq tarixi. Darslik. IIV Akademiyasi .Toshkent. 2012

⁴ H.T.Odilqoriyev.; N.P.Azizov.; X. Y.Madirimov. Davlat va huquq tarixi. Darslik. IIV Akademiyasi .Toshkent. 2012

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 168-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445518>

turli davlatlarda turlicha organlarda va turli nomlar bilan atalganiga qaramay, xozirgi kunda prokuratura organlari deyarli har bir davlatda mavjud hamda huquq va majburiyatlari o'xshashdir. Ularda bir qancha farqlar borligini inobatga olganimizda hamda asosiy huquqi va majburiyati deyarli o'xshashligini va sezilarli farqlar faqat davlat tuzimi va ularga yuklangan vazifalarda, davlat ishlariga, hokimiyat va hukumat ishlariga qanchalik darajada aralashishiga qarab belgilanishi ham nazarda tutishimiz kerak.⁷

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar sanasidagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 17-bandida prokuratura organlariga alohida to'xtalib, "Qonuniylikni ta'minlovchi, adolatli va ochiq prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun - ustuvor, jazo - muqarrar", tamoyilini bosh mezonga aylantirish" bandining mavjudligi mazkur sohaga qaratiladigan e'tibor, jamiyatda adolat va qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan asosiy e'tibor va mas'uliyat ramzidir. Mazkur strategiyaga ilova sifatida keltirilgan jadvalda mazkur soha bo'yicha qabul qilishi lozim bo'lgan qonun loyihalari keltirib o'tilgan:

Mazkur qonun loyihalaridan ko'rishimiz mumkinki, prokuratura organlari o'zining asosiy vazifasi bo'lgan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishida endilikda nazoratda bo'ladi, bu esa sohada korrupsiya, boshboshdoqlik, bo'ysunmaslik, adolatsizlik va qonunlarga rioya qilmaslikka qarshi kurashishda, shaxs va jamiyat, davlat manfaatlarini yuqori darajada ta'minlanishiga sabab bo'ladi. Mazkur tizim shunday bo'lishi lozimki, unda davlat va jamiyat birgalikda, uyg'unlikda prokuratura organlari ishiga halal bermasdan o'z nazoratlarini amalga oshirishi lozim. Keyingi qonun loyihasi esa, mazkur organning faoliyatini amalga oshirishda oshkorolikni ta'minlashdan iboratdir. Davlat siyosati, fuqaro va jamiyat, davlat manfaatlariga ziyon yetkazmaslik maqsadida mazkur organ tomonidan barcha ma'lumotlar va ular olib boradigan ishlar ma'lum darajada sir hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda mazkur sohada suiiste'mollik hollari bo'lgani sababli oshkoralik prinsipini qo'llash tamoyiliga o'tish foydalidir. Albatta, bu murakkab jarayon, negaki, aynan nimani oshkora qilish va nima mazkur sohada oshkor bo'lmaslik chegarasini belgilab olish lozim.

Mazkur organning jamiyat oldida hisobdorligini amalga oshirish jarayoni esa uning jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar bilan ish olib borishiga taqaladi hamda har qanday sohada bo'lmasin, bu organ o'zining jamiyat, fuqarolar va davlat oldidagi mas'uliyatini bilishi va bajarishi lozim. Prokuratura organlari ustidan kollegial nazoratni kuchaytirish, mazkur qaror loyihasida kollegial organlar

⁷ M.A.Shomurotov. Rivojlangan xorijiy davlatlarda hududiy prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari va hisobdorligi masalalarida xalqaro tajribalarning o'ziga xos tomonlari. "Science and education" ilmiy jurnali. 2021.

prokuratura organi ustidan nazorat olib borishi yozilgan bo'lsada, aynan qaysi organlar va qay tartibda, qaysi sohalarda va qanday tartibda nazorat olib borishini aniqlash lozimdir. Negaki, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi mazkur organning ish faoliyatiga o'zgacha tarzda halaqit bermaydigan va ta'sir o'tkazmaydigan tizim ishlab chiqish lozimdir⁸.

XULOSA

Mustaqillikgacha, mustaqilik yillarida hamda Yangi O'zbekistonda prokuratura organlariga qaratilgan e'tibor bir-biridan tubdan farq qiladi. Sovet davlati mazkur organni jazolash tizimiga aylantirgan bo'lsa, mustaqillik yillarida mazkur organning ish prinsipi adolat va huquqni ta'minlash, huquqiy davlat asoslarini yaratish bo'ldi. Endilikda mazkur organning ish faoliyati dastlabki qabul qilingan qonun, Konstitutsiya hamda xalqaro shartnoma va xalqaro huquq qoidalariga mos tarzda jamiyatni demokratiyani kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatni har bir soha va davlat va jamiyat hayotining har bir bo'g'inida aks ettirish dolzarb masala hisoblandi hamda bunga erishish uchun qator davlat dasturlari va strategiyalar ishlab chiqildi. "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida prokuratura organi to'g'risida alohida faoliyat yo'nalishi belgilanib, quyidagi mazmunda bayon etilgani, -" ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar" tamoyilini bosh mezoniga aylantirish" ham fikrimiz dalilidir.

Prokuratura organlari xodimlariga qo'yiladigan talablar faqatgina xalqaro miqyosda emas, balki mamlakatimiz qonunchiligida ham katta mas'uliyatni talab qiladi: ham nazariy, ham amaliy jihatdan qonunlarning bir xilda ijrosi ustidan nazoratni olib borishga vakolatli bo'lgan bu tayanch organ avvalo o'z tajribasida qonunlarni ijro qilinishi, tengsizlikka yoki adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. Toshkent. "O'zbekiston". 2010.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 07.12.2016y. Toshkent. O'zbekiston. 2017y.
3. Sh.M.Mirziyoyev. "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir." "Xalq so'zi" gazetasi. 08.12.2019.

⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya [kodeksi](#)
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 9-iyuldagi 343-sonli “Sudlar, prokuratura va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi [qarori](#)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5438-sonli “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [Farmoni](#)
7. Bosh prokurorning 2015-yil 27-noyabrdagi “Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida”gi №126-sonli buyrug'i